

## KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA (O'QUVCHILARGA) XORIJ TILINI INTERFAOL USULLARDA O'RGATISH METODLARI

*Numonova Mehrubon*

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi  
2-bosqich talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Zubaydova N.N.*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada ingliz tilini interfaol usullarda o'rgatish metodlari va o'yin texnologiyalaridan qanday foydalanish, ularning til o'rganishdagi ahamiyati, ta'siri va imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumotlar aytib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar, cues and clues, demonstrating, modeling.

Bozor iqtisodiyoti jadal rivojlanib borayotgan hozirgi dunyo nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, hozirgi paytda xorijiy tillarni o'qitish va o'rgatishga bo'lgan talab juda oshib ketyapti. Shu bois ham har bir ota-onasiga o'z farzandining yetuk inson bo'lib yetishishi uchun yoshligidan boshlab xorijiy tilni o'rganishi uchun sharoitlar yaratishga harakat qilayotgani sir emas. Hozirgi paytda ko'pgina ta'lim muassalarida xorijiy tilni o'qitishda interfaol usullar sinab ko'rilmoxda. Interfaol usullarning afzallik tomonlari shundagi, o'quvchi chet tilini tez va samarali usullarda o'rgana oladi. Interfaol usullarga tarqatma materiallar, video-taqdimotlar, rasmlli taqdimotlar va shunga o'xshash o'qitish vositalarini misol qilsak bo'ladi. Va shu bilan birga interfaol usullarda bir qator o'rgatish metodlari ham mavjud.

Bularga "Cues and clues"(Ishoralar), "Demonstrating"(Ko'rsatish), So'z zanjiri metodi, Raketa o'yini kabi yangi ped texnologiyalarga misol bo'ladi.

"Cues and Clues"(Ishoralar) metodi. O'quvchilar dars paytida berilgan savollarga javob berishda qiynalayotgan bo'lsalar, Cues and clues metodidan foydalansak bo'ladi. Ushbu metodda o'quvchilar to'g'ri javobni topishi uchun o'qituvchi berilayotgan savolning javobiga ishora qiluvchi so'z aytadi yoki ma'lumotlar beradi. "Cues and Clues" metodi 2 turga bo'linib, ular: visual – ko'rish orqali o'rganish va auditory – eshitish orqali o'rganishdir. Ushbu metodning visual turiga rasmlar, buyumlar yoki yuz ifodasi orqali o'rgatishni misol qilsak bo'ladi. Auditory turiga esa ma'lumotlar berish yoki so'zning bosh harfini aytish orqali to'g'ri javobni topishga yordam beradi. Agar o'quvchi to'g'ri javobni qiyinchiliklarsiz topa olsa, bu metod unga o'ziga bo'lgan ishonchini ortishiga yordam beradi.

"Demonstrating"(Ko'rsatish) metodi. Barchamizga malumki o'quvchilar taqlid qilish orqali yangi narsalarni tezda o'rganib oladi. Ularga tilni faqatgina so'zlar orqali emas balki rasmlar yoki o'rganilayotgan narsani ko'rsatish orqali o'rgatiladigan

metodni qo'llasak samarali natija bera oladi. Ushbu metod demonstrating yoki modeling deb ataladi. Misol uchun, o'tayotgan mavzuyimiz ranglar mavzusi, o'quvchilarga nafaqat red-qizil deb aytish, shu bilan birga ularga qizil rangli narsalarni ko'rsatish kerak bo'adi. Qolgan barcha ranglar shu tariqa o'rgatiladi. Shundan so'ng o'qituvchi narsa buyumlarning rangini aytib ularni bir xil qilib o'z ranglariga mos ajratadi. Va ushbu topshiriqni o'quvchilar ham takrorlashadi. [<sup>1</sup>].

So'z zanjiri – Sinfda o'ynash uchun qiziqarli o'yinlar. Talabalaringizning so'z bankini ushbu soddalashtirilgan, tayyorlovsiz o'yin bilan sinab ko'ring. Birinchidan, "ari" kabi so'zni o'ylab toping, so'ngra to'pni talabaga tashlang; ular "zumrad" kabi oxirgi "e" harfi bilan boshlangan boshqa so'z haqida o'ylashadi. Kimdir keyingi so'zni yetarlicha tez baqira olmaguncha ular sinf bo'ylab so'z zanjirini davom ettiradilar va keyin o'sha o'yinchisiz qaytadan boshlanadi. Murakkab daraja uchun siz mavzuni tayyorlappingiz va o'quvchilardan faqat shu toifaga tegishli so'zlarni aytishni so'rashingiz mumkin. Misol uchun, agar sizning mavzuining "hayvon" bo'lsa va birinchi so'z "it" bo'lsa, o'yinchilar "echki" yoki "g'oz" kabi hayvonlarning so'zlarini kuzatishlari kerak. Kategoriyanı kengroq tuting, aks holda bu tezkor sinf o'yini juda qiyin bo'ladi!

"Raketa" o'yini. Doskaga raketa rasmi chiziladi, yoki, uchta raketa yasab savollar yozilgan kartochkalar ilinadi. Raketa o'zga sayyoraga uchish uchun yuklardan xoli bo'lishi kerak. O'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Qaysi guruh a'zolari savollarga to'g'ri javob bersa kartochkalar olib tashlanadi. To'g'ri javob berilmagan kartochka raketada qoladi va u ucha olmaydi. Yangi mavzuni tushuntirish paytida raketa yetib borgan sayyoradan kelgan ma'lumotlar sifatida mavzu tushuntirilsa qiziqarliroq bo'ladi. [<sup>2</sup>].

Xulosa qilib aytganda, dono xalqimiz bejizga ish bilganga bir tanga, til bilganga ming tanga, deb bezij aytishmagan. Biz pedagoglar dars mashg'ulotlarini tashlik etishda interfaol metodlardan foydalangan tarzda mashg'ulotlarni tashkil etak, til o'rganuvchilarni etiborni jalb etgan bo'lamiz. Natijada, ularda til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantira olamiz.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. <https://ahaslides.com/uz/blog/17-fun-games-to-play-in-class-all-grades/>.
2. <https://youtu.be/iQaMS8JQk3Y?si=HeEZvsFFmjGTwRrM>.
3. <https://baxtiyor.uz/darslarni-samarali-tashkil-etishda-foydalanadigan-oyinlar/> /
4. Zubaydova Nilufar Nematillaeva, Learning English with phrases (2019).
5. Zubaydova Nilufar Nimatillaeva, The importance of teaching vocabulary (2019).

<sup>1</sup>  
<sup>2</sup>